

XUFYONA IQTISODIYOTNI OLDINI OLIISHDA SOLIQLARNING O'RNI

Ashiraliyev Sayfiddin Faxriddin O'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, IH-91 guruh talabasi

Umarova Nargiza Xoldarovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, katta o'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15653791>

Bugungi kunda yurtimizda iqtisodiyotimizni rivojlantirishga doir ko'plab keng ko'lamli ishlar olib borilyapti. ayniqsa tadbirkorlarni qo'llab quvvatlash, uni rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan **“O'zbekiston - 2030” strategiyasi** mamlakatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, uning muhim qismini iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini mustahkamlash tashkil etadi¹.

Shunga qaramay xufyona iqtisodiyot hanuzgacha iqtisodiy taraqqiyotga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xufyona iqtisodiyot davlat budjetiga tushumlarni kamayishini, korrupsiya, adolatsiz raqobat va ijtimoiy tengsizlik kabi muammolarni keltirib chiqaryapti. Xufyona iqtisodiyot, rasmiy soliq tizimlaridan va mehnat bozoridan chetda qolgan iqtisodiy faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Soliq siyosati xufyona iqtisodiyotni kamaytirishda muhim vosita hisoblanadi. Chunki davlat va fuqorolar o'rtasidagi asosiy munosabatlarni soliqlar tartibga solib turadi Soliq stavkalarining optimallashtirilishi, soliq tizimining soddalashtirilishi, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va soliq ma'muriyatining samaradorligi oshirilishi xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashishda asosiy omillar sanaladi.

Davlat kuchli ijtimoiy-siyosiy tadbirlarni amalga oshirish uchun nafaqadagilar, talabalar, ko'p bolali oilalar va boshqalarni mablag' bilan ta'minlash uchun, ayrim cheklangan tovarlar bahosidagi farqni budjet hisobidan qoplaydi va undan tashqari mahallalarda ijtimoiy himoyaga muhtoj kam ta'minlangan fuqorolarga moddiy yordamlar ko'rsatadi. Shu bilan birga, davlat jamiyat a'zolari osoyishtaligini saqlash uchun o'zining mudofaa qobiliyatini mustahkamlab turishga mablag'lar sarflaydi, qolaversa, davlat fuqarolar xavfsizligini saqlash, mamlakatda tartib-intizom o'rnatish, uni boshqarish funksiyalarini bajarish uchun ham mablag' sarflaydi. Bunday xarajatlarni amalga oshirishning zarurligi ular uchun manba bo'lgan soliqlarni qanchalik muhimligini ko'rsatadi. Hozirga qadar davlatning funksiyalarini bajarish uchun lozim bo'lgan moliyaviy mablag'larni shakllantirishning soliqlardan boshqa usuli jahon amaliyotida qo'llanilgan emas. Ya'ni hukmron kuch sifatida davlat mavjud ekan, moliyalashtirish usuli sifatida soliqlar amal qiladi. Ma'lumki, jamiyat iqtisodiy hayoti juda murakkab iqtisodiy hodisalardan iborat bo'lib, ana shu murakkablik bevosita soliqlarga ham tegishliki, bu holat soliqlarni iqtisodiy mohiyatini teran anglashni taqozo etadi. Soliq tizimi esa xufyona iqtisodiyotni oldini olishda umuman olganda nazorat qilishda asosiy bo'gin hisoblanadi.

O'zbekiston soliq tizimi so'nggi yillarda keng qamrovli islohotlarni boshdan kechirdi. Bu islohotlar soliq yukini **kamaytirish**, soliq ma'muriyatchiligini **soddalashtirish** va iqtisodiyotning shaffofligini **oshirishga** qaratilgan. Xususan, QQS stavkasining **12% ga tushirilishi** va ijtimoiy soliqning **yagona 12% stavkasi** joriy etilishi tadbirkorlar uchun

¹ PF-158-coh 11.09.2023. “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida

muhim yengillik bo'ldi. Biroq, statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayrim muammolar hali ham dolzarb. Masalan, 2024-yil holatiga ko'ra, **qishloq joylarda onlayn kassa apparatlari qo'llanilishi ko'paygan**. Bu ko'rsatkichlar, soliq tizimi islohotlari samaradorligini yanada oshirish uchun **raqamlashtirishni chuqurlashtirish** va **soliq to'lovchilar bilan kommunikatsiyani yaxshilash** zarurligini ta'kidlaydi. Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston soliq tizimi rivojlanish yo'lida, ammo undan to'liq foydalanish va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish uchun **ma'muriy to'siqlarni kamaytirish, raqamlashtirishni joriy etishni tezlashtirish va aholining soliqqa bo'lgan munosabatini o'zgartirish** bo'yicha tizimli ishlar davom ettirilishi lozim. Shuningdek, aholi bilan to'g'ri va ochiq muloqot, ularning ehtiyoj va savodxonlik darajasini hisobga olgan holda yondashuv, shuningdek, raqamli infratuzilmani rivojlantirish orqali O'zbekistonda soliq muhitini ijobiy tomonga o'zgartirish mumkin bo'ladi.

O'zbekistonda soliq islohotlari 2017-yildan boshlab yangi iqtisodiy siyosatning bir qismi sifatida joriy etildi. Masalan, 2019-yilda qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) stavkasining 20% dan 15% ga tushirilishi va kichik bizneslar uchun soddalashtirilgan soliq rejimlarining kengaytirilishi islohotlarning muhim qadamlaridan biri bo'ldi².

O'zbekistonda soliq islohotlari bir nechta strategik yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

Yuqori soliq stavkalari tadbirkorlarni yashirin iqtisodiyotga undashi mumkin, shuning uchun stavkalarni pasaytirish va soddalashtirish islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Onlayn kassa apparatlari, elektron hisob-fakturalar va real vaqt rejimida ishlashi monitoring tizimlari va tranzaksiyalarni shaffof qiladi. Muayyan soha va hududlarni qo'llab-quvvatlash uchun soliq yengilliklari taqdim etilmoqda. Bulardan maqsad esa soliq to'lash bo'yicha xabardorlikni oshirish va aholining qonunga rioya qilish darajasini ko'tarish.

Shu bilan birgalikda soliq sohasida soliq tizimini tartibga soluvchi qonunlar va me'yoriy hujjatlarni yangilashlar bo'ldi. Soliq qonunchiligini takomillashtirish "Soliq kodeksi"ning yangi tahririni (2019-yildan) qabul qilish bilan boshlandi. Soliq kodeksi soliq turlari, stavkalar, imtiyozlar va ma'muriy jarayonlarni aniqlaydi. 2024-yilda kodeksga kiritilgan o'zgartirishlar kichik bizneslar uchun yagona soliq to'lovi stavkasini 3% gacha pasaytirdi va IT-sohasi uchun daromad solig'idan ozod qilish muddatini 7 yilgacha uzaytirdi. Qonunchilik islohotlari Davlat soliq qo'mitasi va Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan boshqariladi. Masalan, 2024-yilda "Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qonun loyihasi qabul qilinib, kichik korxonalar uchun soliq hisobotlarini topshirish muddatlari soddalashtirildi. Qonunchilik islohotlari kichik bizneslarning rasmiylashtirilishini rag'batlantirdi. 2024-yilda ro'yxatdan o'tgan kichik korxonalar soni 28,000 taga yetdi, bu 2023-yilga nisbatan 10% o'sishni ko'rsatadi. Biroq, qishloq hududlarida qonunchilik haqida ma'lumot yetishmasligi tufayli ta'sir cheklangan bo'ldi. Qonunchilik islohotlari soliq tizimini shaffoflashtirsa-da, ularning samaradorligi ma'lumot tarqatish va mahalliy soliq xizmatlari sifatiga bog'liq. Masalan, Toshkentda qonunchilik o'zgarishlari haqida ma'lumot keng tarqalgan bo'lsa, Qashqadaryoda tadbirkorlarning 30% i yangi qoidalaridan bexabar edi. Ko'rinib turibdiki aholining savodxonligi ham soliq sohasida albatta muhimdir.

References:

Используемая литература:

² <https://www.soliq.uz/>

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [https://xs.uz/-/O'zbekiston – 2030” strategiyasi qabul qilindi - Xalq so'zi](https://xs.uz/-/O'zbekiston-2030-strategiyasi-qabul-qilindi-Xalq-so'zi)
2. B.A. Rahmatullayev. Soliqqa tortish tamoyillari. Darslik. – T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyotmatbaa uyi», 2021. 246 bet
3. Jo'ayev A.S., Berdiyeva U.A. Soliq ma'murchiligi. O'quv qo'llanma 2019, 383 bet.
4. <https://stat.uz> - [O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi](#)